



O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY FANLAR SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARI (XX ASRNING 60-70 YILLAR MISOLIDA)

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.11611646>

Axmedov Sarvar Tulqinovich
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 60-70 yillarida ilm-fanning ijtimoiy fanlar sohasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining olib borishi, rivojlanishi, rivojlangan davlatlarda ilm-fan sohasida o‘ziga xos strategiya ishlab chiqilib, tizimda doimiy ravishda yangilanishlar va o‘zgarishlar yuz berayotganligi, ilm-fan islohotlari, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o‘qituvchilar malakasini oshirish muhimligi qayd etilgan. Shuningdek, tarix fanining tarixshunoslik, arxeologiya sohalaridagi xalqaro aloqalari, adabiyot sohasidagi hamkorlik aloqalari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademik olimlarining xalqaro konferensiyalarda o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etishi aks etgan. O‘zbekiston sobiq sovet davlatining tarkibida bo‘lgan davrda ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalarda faol ishtirok etganligi manbalar asosida ko‘rsatib berilgan. O‘zbekiston olimlarining xorijiy davlatlardagi olimlar bilan ijodiy aloqalari fundamental fanlarning aniq muammolari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan ilmiy sessiyalarda, konferensiya va kongresslarda ishtirok etishlari tufayli ham mustahkamlanib borgan. Umuman olganda, O‘zbekistonning xalqaro aloqalarini rivojlanishida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademik olimlari munosib hissa qo‘shgan hamda o‘z tajribalarini xorijiy davlat olimlari bilan almashishgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, xalqaro aloqalar, xalqaro simpozium, ilm-fan aloqalari, ijtimoiy fanlar, tarix, adabiyot.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СОТРУДНИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК (НА ПРИМЕРЕ 60-70 ГГ. XX ВЕКА)

Ахмедов Сарвар Тулкинович
Докторант Каршинского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие сотрудничества науки с зарубежными странами в области социальных наук в 60-70-е годы XX века, отмечены выработка специфической стратегии в области науки в развитых странах, постоянные обновления и изменения в системе, реформы науки, внедрение информационно-коммуникационных технологий в сферу, важность повышения квалификации преподавателей. Отражены также международные связи исторической науки в области историографии, археологии, сотрудничество в области литературы, участие ученых Академии наук Узбекистана в международных конференциях с докладами. Источники указывают на то, что Узбекистан принимал активное участие в международных связях в области науки в период своего пребывания в составе бывшего советского государства. Творческие связи ученых Узбекистана с учеными зарубежных стран также укрепились благодаря участию в научных сессиях, конференциях и конгрессах, организуемых в зарубежных странах по конкретным проблемам фундаментальных наук. В целом, учёные Академии наук Узбекистана внесли достойный вклад в развитие международных связей Узбекистана, а также обменялись опытом с зарубежными учеными.



Ключевые слова: Академия наук Узбекистана, международные отношения, международный симпозиум, научные связи, история, литература.

INTERNATIONAL COOPERATION RELATIONS OF UZBEKISTAN IN THE FIELD OF SOCIAL SCIENCES (BASED ON THE EXAMPLE OF THE 60-70 OF THE XX CENTURY)

Axmedov Sarvar Tulqinovich

Doctoral student at Karshi State University

Abstract: In the 60-70s of the 20th century, this article notes the conduct, development of cooperation relations of Science with foreign countries in the field of Social Sciences, the development of a specific strategy in the field of Science in developed countries, constant updates and changes in the system, the importance of science reform, the introduction of information communication technologies into the field, Also reflected are the International Relations of historical science in the fields of historiography, archeology, cooperation in the field of literature, participation of academic scientists of the Academy of Sciences of Uzbekistan in international conferences with their lectures. The fact that Uzbekistan actively participated in international relations in the field of science during its time in the composition of the former Soviet state is indicated by sources. The creative ties of Uzbek scientists with scientists in foreign countries have also been strengthened due to their participation in scientific sessions, conferences and congresses organized in foreign countries on specific problems of fundamental Sciences. In general, academic scientists of the Academy of Sciences of Uzbekistan made a worthy contribution to the development of International Relations of Uzbekistan and exchanged their experience with foreign state scientists.

Keywords: Academy of sciences of Uzbekistan, international relations, international symposium, science relations, history, literature.

KIRISH

Jahon davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilashning asosiy shartlaridan biri ilm-fan sohasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqligidir. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ilm-fan sohasida o'ziga xos strategiya ishlab chiqilib, tizimda doimiy ravishda yangilanishlar va o'zgarishlar yuz bermoqda. Ilm-fan islohotlari, sohaga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish shular jumlasidandir. Jahonning turli mintaqalarida ilm-fan sohasini rivojlantirish bo'yicha YUNESKONing turli loyihalari doirasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohalarda bo'lgani kabi xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy sohalarda o'rnatilgan samarali hamkorliklarni ilmiy jihatdan idrok etish nazariy-metodologik nuqtai nazardan o'ta dolzarb ahamiyatga egadir. Zero, mazkur masala o'zining yangiligi tufayli hali u qadar jiddiy ilmiy tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'risida" (1995), "Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" (2012) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston



Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni hamda 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3105-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, shu bilan bir qatorda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning ilm-fan sohasidagi hamkorlik aloqalari XX asrning 60-70 yillarida rivojlandi. Bu hamkorlik aloqalari, ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasida faollashgan. Jumladan, olim Z. Abraximovich Polshaning O'rta Osiyo xonliklari bilan iqtisodiy diplomatik aloqalarining rivojlanib borishi bilan qiziqqan va shu sohani o'rgangan. U O'zbekiston FA muxbir a'zosi R.N.Nabiev bilan xat yozishib, ilmiy aloqalar o'rnatgan¹. Shuningdek, Germaniya Demokratik Respublikasi Fanlar akademiyasining xodimi qadimgi yunon mualliflari asarlarini o'rganish bo'yicha mutaxassis doktor Shtroxmayer filologiya fanlari doktori U.K.Karimov bilan xat yozishib turgan².

Umuman olganda, o'zbek olimlarining tarix fani sohasidagi xalqaro aloqalari konferensiyalar ko'rinishida amalga oshirilgan. Bu yo'nalishdagi muhim o'zgarishlardan biri, 1964-yilning 1-10-avgustida Moskvada VII Xalqaro antropologlar va etnograflarning kongressining tashkil qilinganligidir. Kongressda 58 davlatdan 2000 dan ortiq delegatlar qatnashgan³. Kongress o'z ishini 27 seksiyada olib borgan. Ushbu kongressda O'zbekistondan 42 nafar olim qatnashgan. Shundan 20 nafar olim O'zbekiston Fanlar akademiyasidan, 10 kishi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqolpog'iston filialidan, 12 nafari boshqa oliy o'quv yurtlaridan ishtirok etishgan⁴.

1968-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mehmoni sifatida yugoslaviyalik olim Stupari, vengriyalik antropolog olim T.Tott O'zbekistonga tashrif buyurishgan. T.Tott Qashqadaryo viloyatida antropologik tadqiqotlar olib borgan.

1969-yil oktabr oyida polshalik tarixchi olim M. Duka O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarix va arxeologiya institutida, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida va respublikaning boshqa ilmiy muassasalarida ilmiy ish olib borgan. Mazkur

¹ O'z. MA. R-42-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 75-varaq.

² O'z. MA. R-2-fond, 1-ro'yxat, 165-ish, 96-varaq.

³ O'zbekiston ijtimoiy fanlar. 1964, №10. –B.51.

⁴ O'zbekiston ijtimoiy fanlar. 1964, №10. –B.52.



davrda GDR Fanlar akademiyasi Afrika institutining ilmiy xodimi doktor X.Merdel O‘zbekiston FA, Sharqshunoslik institutlarini borib ko‘rgan, mazkur institutlarning xodimlari bilan ilmiy suhbatlar o‘tkazgan va ular olib borayotgan tadqiqotlarning natijalari bilan tanishgan⁵.

O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan adabiyot fani sohasidagi aloqalarini rivojlantirishda xorij mualliflarining asarlari muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, 1964-1970 yillarda O‘zbekistonda Bolgariya, Vengriya, GDR, Polsha, Angliya, Jazoir, Belgiya, Birma, Indoneziya, Iroq, Turkiya, AQSh, Fransiya, Suriya, Pokiston, Ispaniya, Italiya va boshqa davlatlar yozuvchi va shoirlarining 100 dan ortiq asarlari bosib chiqarilgan O‘zbekistonning ko‘zga ko‘ringan yozuvchi va shoirlari Sharof Rashidov, Zulfiya, A.Muxtor, Oybek, Shayxzoda kabi yozuvchilarning asarlari Yevropa, Osiyo va Afrika xalqlari tilida nashr etilgan⁶.

O‘zbekiston olimlarining xorijiy davlatlardagi olimlar bilan ijodiy aloqalari fundamental fanlarning aniq muammolari bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan ilmiy sessiyalarda, konferensiya va kongresslarda ishtirok etishlari tufayli ham mustahkamlanib borgan. Masalan, 1969-yilda O‘zbekiston FA muxbir a‘zosi, filologiya fanlari doktori, professor M.K.Nurmuxamedov Berlin shahrida oltoyshunoslik bo‘yicha o‘tkazilgan XII Xalqaro kongress ishida ishtirok etdi. Bundan tashqari, o‘zbek olimlaridan E.Fozilov, S.Kamolov, A. Nosirov, S.Otamirzaevalar mazkur kongressda qatnashib, ma‘ruzalar bilan chiqishgan, ilmiy muammolar bo‘yicha o‘z hamkasblari bilan o‘zaro fikr almashishgan⁷.

1969-yil avgustda Qoraqalpog‘istonda “1969-yilgi poeziya kunlari o‘tkazildi. Bu poeziya kunlarida Moskva, Toshkent, Ashxobod, Olmaota, Boku, Riga, Qozon, Tbilisi singari shaharlardan kelgan yigirmadan ortiq shoirlar ishtirok etishdi. Jumladan, Moskvadan S.Seversev, Qozog‘istondan H. Yergoliev, O‘zbekistondan E.Vohidov, Qozog‘istondan S. Jusaev, Tatariston ASSRdan E.Yuzeev, Ozarbayjondan A.Befali Jabborov, Turkmanistondan S. Uraev kabi shoirlar qatnashgan⁸.

O‘zbekiston olimlari faqat ilmiy ishlar, konferensiyalar, simpoziumlar ishida nafaqat ishtirok etgan, balki O‘zbekistonda ham xalqaro anjumanlar tashkil qilingan. Jumladan, 1969-yil sentabr oyida Samarqand shahrida YUNESKOning Temuriylar davri san‘atini o‘rganish bo‘yicha xalqaro ilmiy simpoziumi o‘tkazildi⁹. Bu anjuman

⁵ O‘zSSR FA Chet ellar bo‘limi joriy arxivi.1969 yil materiallari.

⁶ Mannonov B, Nishonov M. O‘zbekiston SSRning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari. T., “Fan”. 1974.–B.51.

⁷ O‘zbekiston SSR FA Chet ellar bo‘limining joriy arxivi, 1969 yil materiallari.

⁸ To‘ychiev Q. O‘rta Osiyo Respublikalarining iqtisodiy va madaniy hamkorligi. T.: “O‘zbekiston”. 1970. –B.35.

⁹ Международный симпозиум по изучению искусства эпохи Тимуридов. Общественные науки в Узбекистане. 1969, №10. –Б.75.



Afg'oniston, Eron, Hindiston, Pokiston va O'rta Osiyo sovet respublikalarining tarixida mushtarak bo'lgan masala - Temuriylar davri san'atini keng va chuqur ilmiy o'rganishga bag'ishlangan. Simpoziumda Moskva, Leningrad, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Qozog'iston va O'rta Osiyo respublikalaridan kelgan olimlar bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlari, G'arbiy Yevropa va Amerika qit'asidan bir qancha olimlar ishtirok etishgan. Simpoziumda 50 ta ilmiy ma'ruza tinglandi. Shu tariqa, O'rta Osiyo olimlari bilan xorijiy davlat olimlari hamkorligi kundan kunga rivojlanib borgan¹⁰.

1970-yil avgust oyida Moskva shahrida tarix fanlari bo'yicha XII Xalqaro kongress bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 60 mamlakatidan kelgan 4 mingga yaqin kishi ishtirok etgan. 40 kishidan iborat O'zbekistonning yetakchi olimlari delegatsiyasiga akademik I.M.Mo'minov boshchilik qilgan¹¹.

1971-yilda Sharqshunoslik institutiga 20 dan ortiq davlatdan, chunonchi, Yaman Arab Respublikasi, Eron, Quvayt, Yaponiya, Angliya, GDR, Afg'oniston va boshqa mamlakatlardan olim va jamoat arboblari kelib, institut olimlarining ilmiy ishlari bilan tanishishgan. Shuningdek, mazkur davlatlarning hukumat boshliqlari, jumladan, Fransiya, Hindiston davlatlari prezidentlari va boshqalar mehmon bo'lib kelishgan. Sharqshunoslik institutining ko'plab ko'zga ko'ringan sharqshunos olimlari, jumladan, tarix fanlari doktori S. A. Azimjonova, filologiya fanlari doktori U. I. Karimov, tarix fanlari nomzodi M. M. Hoshimov, filologiya fanlari nomzodi O. Usmonovlar kabi sharqshunoslar Hindiston, Eron, Afg'oniston, Fransiyada chaqirilgan xalqaro Kongresslarida faol ishtirok etishdi va ilmiy dokladlar bilan chiqishgan¹².

1973-yilda O'zbekiston FA vitse-prezidenti, akademik I. M. Mo'minov rahbarligida falsafa fanlari doktorlari M. Baratov, B. Ismoilov va fan nomzodi A. Sharipovlar Bolgariyada chaqirilgan faylasuflarning xalqaro simpoziumlarida faol ishtirok etishgan¹³. O'zbekiston Fanlar akademiyasining ijtimoiy fanlar bo'yicha xalqaro ilmiy aloqalarini rivojlantirishda yirik sharqshunoslik markazlaridan biri bo'lgan O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti katta rol o'ynagan.

1975-yil noyabrda Veymar shahrida (GDR) bo'lib o'tgan xalqaro kengashda "Arxeologik yodgorliklarni va ular atrofidagi muhitni muhofaza qilish" degan

¹⁰ To'ychiev Q. O'rta Osiyo Respublikalarining iqtisodiy va madaniy hamkorligi. T.: "O'zbekiston". 1970. -B.30.

¹¹ Международный конгресс историков в Москве. Общественные науки в Узбекистане. 1979, №7, -B.57-68.

¹² Mannonov B, Nishonov M. O'zbekiston SSRning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari. T., "Fan". 1974. -B.43.

¹³ Mannonov B, Nishonov M. O'zbekiston SSRning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari. T., "Fan". 1974. -B.42.



masalasi muhokama qilinadi. Unda kengash a'zosi T.M.Mirsoatov "O'zbekistonda arxeologiya fanining yutuqlari" mavzusida ma'ruza o'qigan¹⁴.

1978-yil dekabr oyida Moskva shahrida SSSR Fanlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Tarixshunoslik fanini o'rganish va hozirgi zamon tarixining asosiy yo'nalishlari" degan muammoga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda ko'pgina mamlakatlarning tarixchilari va tarixshunoslari, shu jumladan O'zbekiston olimlari ham ishtirok etdilar¹⁵.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekiston ijtimoiy fanlar sohasida xalqaro hamkorlik aloqalari olib borgan. O'zbekistonning xalqaro aloqalarini rivojlanishida O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademik olimlari munosib hissa qo'shgan hamda o'z tajribalarini xorijiy davlat olimlari bilan almashishgan. O'zbek olimlari ilmiy konferensiya va seminar hamda simpoziumlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishgan. Umuman olganda, xalqaro hamkorlik O'zbekistonda fan sohasini yanada yuksalishiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mannonov B, Nishonov M. O'zbekiston SSRning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari. T., "Fan". 1974.–B.51.
2. Международный симпозиум по изучению искусства эпохи Тимуридов. Общественные науки в Узбекистане. 1969, №10. – Б.75.
3. Общественные науки в Узбекистане. 1979, №7, -Б.57-68.
4. To'ychiev Q. O'rta Osiyo Respublikalarining iqtisodiy va madaniy hamkorligi. T.: "O'zbekiston". 1970. –Б.35.
5. O'z. MA. R-42-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 75-varaq.
6. O'z. MA. R-2-fond, 1-ro'yxat, 165-ish, 96-varaq.
7. O'z. MA. R-1-fond, 1-ro'yxat, 2855-ish, 69-varaq.
7. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1964, №10. –B.51.
8. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1964, №10. –B.52.
9. O'ZSSR FA Chet ellar bo'limi joriy arxivi.1969 yil materiallari.
10. O'zbekiston SSR FA Chet ellar bo'limining joriy arxivi, 1969 yil materiallari.

¹⁴ O'z. MA. R-1-fond, 1-ro'yxat, 2855-ish, 69-varaq.

¹⁵ Общественные науки в Узбекистане. 1979, №7, -Б.57-68.